



Xalqaro Nordik Univetsiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

Otaboyev Umrbek

Mavzu: Sanoatda investision loyihalami ishlab chiqish va samaradorligini ta'minlash



Reja:

- Investitsiya faoliyati tushunchasi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli.**
- Investitsiya faoliyatiga ta'sir etish omillari va usullari.**
- O'zbekistonda investitsiya faoliyatining me'yoriy-qonuniy bazasi.**
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish.**
- Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlari.**
- Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko'chishini hisobga olish.**



“Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo’lsa, o’z iqtisodiyotining barqaror o’sishiga erishgan.

Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o’zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag’a bo’maydi”.

Sh.M.Mirziyoyev

Investitsiya faoliyati

Investitsiya faoliyati deganda, investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui tushuniladi.

Investitsiya faoliyatiga doir atamalar:

investitsiya sub'ekti,

investitsiya ob'ekti,

investor,

emitent,

investitsiya resurslari,

reinvestitsiyalar

Investitsiya siyosati – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta’minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo‘naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmui tushuniladi.

Investitsiya faoliyatining sub'ektlari

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari — fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;
- xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'limgan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;
- hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investitsiya faoliyati ob'ektlari

- Moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlari investitsiya faoliyatining ob'ektlaridir.
- Barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan ob'ektlarga investitsiya kiritish ta'qiqlanadi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisining huquqlari

- Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi quyidagilarga haqli:
 - tanlov (tender) savdosining ishtirokchisi bo'lish;
 - investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish;
 - agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor oldidagi o'z majburiyatini bajarishga boshqa shaxslarni jalgan etish;
 - agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investitsiya faoliyati ob'ektining haqiqiy qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan tejamni mustaqil ravishda tasarruf etish.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi:

- ❑ qonun hujjatlarida belgilangan normalar, qoidalar va standartlarga rioya etishi;
- ❑ shartnomalarni o’z vaqtida va lozim darajada bajarishi;
- ❑ shartnomani bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tufayli investorga yetkazilgan zararni qoplashi;
- ❑ mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvenin organlarining o’z vakolati doirasida qo’yilgan talablarini bajarishi shart.
- ❑ Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi litsenziyalanishi lozim bo’lgan faoliyatni amalga oshirish uchun O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda litsenziya olishi shart.

Har bir davlat investitsion faoliyatni quyidagi maqsadlarda muvofiqlashtirib turadi:

- Bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib borish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshirilishi.
- Davlatning fan-texnika siyosatini o'tkazish va buning asosida xo'jalik tabaqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqish.
- Mamlakat ijtimoiy siyosatini yuritish.

2025-yilgacha investitsiya strategiyasi loyihasi raqamlarda

“O‘zbekiston Respublikasining 2025 yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiyalar va muammolar tahlili asosida tayyorlangan.

2025 yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish hisoblanadi.

O'zbekistonda chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar

Vazirlar Mahkamasining Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, turizm masalalari kompleksi	Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi: -investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; -davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish.
Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa tegishli vazirliklar	Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi	O'zbekiston Respublikasi Rivojlanish davlat dasturiga kiritilgan loyihalar samaradorligini ko'rib chiqadi. Investitsiya loyiha ekspertizasini o'tkazadi.
O'zbekiston Respublikasining, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	--investitsiya muhitini o'rghanish; -xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatish; -investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko'rsatish; -chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring); -xorijiy investorlarga davlat ro'yxatidan o'tilganidan keyin yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishida yordam berish
Moliya Vazirligi	Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish.
Adliya Vazirligi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarini ro'yxatga olish.

O'zbekistonda chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar

Davlat soliq qo'mitasi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish
Markaziy bank	Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o'tkazilishini, valyuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati.
Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko'rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish.
O'zbekinvest eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan sug'urtalash

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish, odatda, quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- investorlarni rag'batlantirish;
- milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg etish;
- mamlakat hududida investorlarning huquq va manfaatlarini
himoya qilish;
- lozim bo'lsa, ichki investorlar manfaatlarini, birinchi
navbatda, yuzaga chiqarish va ularni himoyalash.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida

O'zbekiston
Respublikasining tegishli
qonunlari yordamida

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Farmonlari,
Qarorlari yordamida

O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat
muassasalari yoki organlari tomonidan chiqarilgan
me'yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida

Davlat investitsiya faoliyatini tartibga solish bilan birga bevosita o'zi ham unda ishtirok etadi. Bunda u:

- davlat investitsiya dasturlarini qabul qilish va ularni respublika byudjetidan moliyalashtirish; yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun to'lovlilik, muddatlilik va qaytarib berish asosida respublika byudjetining markazlashgan investitsiya resurslarini taqdim etish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun j Alb etilgan kreditlar uchun davlat kafolatini taqdim etish;
- investitsiya loyihalarining davlat kompleks ekspertizasini olib borish;
- mahalliy va xorijiy investorlar uchun foydalanish huquqlarini taqdim etish kabilar bilan investitsiya faoliyatida qatnashadi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- ❑ investorlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslarni yaratish, mustahkamlash, takomillashtirib borish;
- ❑ pul-kredit siyosati orqali;
- ❑ vayulta siyosati orqali;
- ❑ amortizatsiya siyosati orqali;
- ❑ narx siyosati orqali;
- ❑ dotatsiyalar, subsidiyalar tizimi orqali;
- ❑ byudjet-soliq siyosati, jumladan, fiskal siyosat, turli soliqlardan imtiyozlar berish;
- ❑ davlat kafolatlari tizimi orqali;
- ❑ chet ellik va mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish orqali;
- ❑ ayrim tarmoq, soha, hududlar va ulardagi ob'ektlarni davlat o'z nazoratida saqlab qolish, investitsiyalash orqali va shu kabilar.

Davlat tomonidan investitsion faoliyatini boshqarish chora-tadbirlari qo'yidagilar usullar orqali amalga oshiriladi:

- ❑ soliq tizimini qulaylashtirish, ya'ni soliq sub'ektlarini, ob'ektlari va stavkalarini tabaqalashtirish va soliq imtiyozlarini berish;
- ❑ amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, shu jumladan tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash hamda amortizatsiya imtiyozlarini berish;
- ❑ ayrim hududlarni, tarmoqlarni rivojlantirish maqsadga dotatsiyalar, subsidiyalar, subventsiyalar orqali yordam ko'rsatish;
- ❑ kredit siyosatini, davlatning norma va standartlarining antimonopol tadbirlarini ishlab chiqarish, davlat mulkini xususiylashtirish va narx-navo siyosatini o'tkazish;
- ❑ yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;
- ❑ investitsiya loyihamalarini ekspertizadan o'tkazish va davlat dasturlariga kiritish.
- ❑ investitsiya loyihamalarining monitoringini o'tkazish va mexanizmini ishlab chiqish.
- ❑ zarur hollarda yoki qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini to'xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

Davlat investitsiya siyosati

Davlat investitsiya siyosati - bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investiyatsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustivor investitsion loyihalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi.

Investitsiya siyosatining rivojlanish bosqichlari

- **1-bosqich:** 1991-1994 yillar;
- **2-bosqich:** 1995-2003 yillar;
- **3-bosqich:** 2003-2008 yillar;
- **4-bosqich:** 2008- 2016 yillar;
- **5-bosqich:** 2017 yil va hozirgi davr.

1- Bosqichda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- turli mulkchilik shakllarini yaratish borasidagi investitsion jarayonda nomarkazlashtirish tadbirlari amalga oshirila boshlandi;
- xususiy moliyalashtirish manbalariga ega bo'limgan ijtimoiy axamiyat kasb etuvchi ob'ektlarni byudjetdan moliyalashtirish saqlab qolindi;
- xususiy mulkchilikni joriy etish tadbirlari olib borildi.

2- Bosqichda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qonunchilik bazasi yaratildi;
- konkurs asosida loyixalarni moliyalashtirishga o'tildi;
- xorijiy investitsiyalarni jalg etish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi;
- iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritilishi kuchaytirildi;
- investitsion loyixalarni amalga oshirishda turli moliyalashtirish manbalari qo'llanila boshlandi.

3- Bosqichda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- valyuta munosabatlari va operatsiyalari liberalizatsiyalashtirildi;
- xorijiy investorlarning huquqlarini himoya kilish va ular manfaatlarini himoyalash bo'yicha muhim xujjatlar kabul qilindi;
- korxonalarining texnik qurollantirilishi kuchaytirildi;
- eksportga mo'ljallangan va import o'rnini qoplovchi maxsulotlar ishlab chikarishga ixtisoslashgan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berildi.

4- Bosqichda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- Inqirozga qarshi choralar qo'llanildi;
- Banklarning investitsion faolligi kuchaytirildi;
- Dastlabki Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etildi.

5- Bosqichda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- 2017-2021-yillarda O'zbekistonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha -Harakatlar strategiyasi qabul qilindi;
- Valyuta bilan bog'liq ishlar muvofiqlashtirilmoqda;
- Investitsiya faoliyatları takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati



Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;
- to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;
- ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;
- mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;
- samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish soxasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;
- aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;
- hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

Kuchli investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun:

- birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish zarur. Tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar o'z daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilmoq kerak.
- ikkinchidan, xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag'lar tarzidagi sarmoyalarni Respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish lozim;
- uchinchidan, O'zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan xalq xo'jaligining zamонавиј strukturasini vujudga keltirishda yordam beradigan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish zarur;
- to'rtinchidan, mablag'larni eng ustuvor sohalarga - respublika mustaqilligini ta'minlaydigan agrar sektorni, yoqilg'i-energetika kompleksini hamda boshqa bazaviy tarmoqlarni rivojlantirishga, raqobatga qodir, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirishga sarflash kerak, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurmay turib, eksport imkoniyatlarini kengaytirish mumkin emas.

Bugungi kunda salohiyatli xorijiy investorlar investitsiya kiritishning quyidagi turli shakllarini taklif qilmoqdalar:

- Hamkorlikda qo'shma korxona tashkil etish;
- 100 % xorijiy kapital asosida korxona tashkil etish;
- Xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiya paketlarini bir qismi yoki yarmini sotib olish.

Xorijiy investitsiya asosida tashkil etiladigan korxonalarga quyidagi shartlar qo'yiladi:

- Ustav fondida eng kamida 150 ming AQSh dollariga teng mablag'ning bo'lishi;
- Korxona tashkilotchilaridan biri xorijiy yuridik shaxs bo'lishi lozim;
- Korxona ustav fondidagi mablag'ning eng kamida 30 %i xorijiy investitsiya ulushi bo'lishi lozim.

Pandemiya va pandemiyadan keyingi davr: xorijiy davlatlarda investitsiya siyosati qanday kechmoqda.

Pandemiya va uning tarqalishiga qarshi qaratilgan cheklov choralari dunyo iqtisodiyotiga keskin va sezilarli darajada zarar yetkazdi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish sur'atlarining bunday keskin pasayishi Ikkinchijihon urushi davridan beri birinchi marta kuzatilmogda. Jahon Bankining shu yil iyun oyidagi taxminlariga ko'ra, 2020-yili dunyo iqtisodiyoti 5,2 foizga qisqarishi kutilmoqda. Aholi jon boshiga daromadlar miqdori 3,6 foizga kamayib, buning natijasida yer yuzining millionlab aholisi qashshoqlikka yuz tutishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy faollik 7 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 3 foizga kamayishi taxmin qilinmoqda. Joriy yilda Yevro mintaqasida ishlab chiqarish hajmi 10 foizgacha qisqarishi, AQSH va Yaponiya kabi davlatlar o‘zlarining 6,1 foizgacha bo‘lgan Yalpi ichki mahsulotlarini yo‘qotishi mumkin. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodning o‘rtacha 4,7 foizga, Rossiyada 6 foizga qisqarishi kutilmoqda.

BMTning Savdo va rivojlanish bo‘yicha Konferensiyasi (YUNKTAD) taxminlariga ko‘ra, pandemianing salbiy oqibatlari 2020-2021-yillarda dunyo miqyosida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining 40 foizgacha qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu so‘nggi 20 yil ichidagi eng past ko‘rsatkich hisoblanadi.

E'tiboringiz uchun
rahmat!!!

